

Yashil

IQTISODIYOT

va

TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeovich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budgetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'la'kov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida)	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahallilashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari	230
Mirzayev Kobii Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
Innovation iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	



NEFT-GAZ, YOQILG'I ENERGETIKA SANOATI SOHASIDAGI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARDA SOLIQ NAZORATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

ORCID: 0009-0007-5773-5162

Abdullaev Shuxrat SultanbaevichToshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish masalalari hamda soliqqa tortish muammosini bartaraf etish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: daromad manbai, soliq ma'muriyatchiligi, soliq hisoboti, an'anaviy reja, xalqaro soliqqa tortish, tabiiy boyliklar, soliqqa tortish, suv resurslari, yer resurslari, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, undirish tartibi, nedra, mulkiy soliqlar.

Abstract: In this article, scientific proposals and recommendations have been developed on the issues of effective organization of tax control and the elimination of the problem of taxation among large taxpayers in the field of oil, gas, and fuel energy industry.

Key words: source of income, tax administration, tax reporting, traditional plan, international taxation, natural resources, taxation, water resources, land resources, subsoil use tax, collection procedure, nedra, property taxes.

Аннотация: В данной статье разработаны научные предложения и рекомендации по вопросам эффективной организации налогового контроля и устранения проблемы налогообложения среди крупных налогоплательщиков в сфере нефтегазовой и топливной энергетики.

Ключевые слова: источник дохода, налоговое администрирование, налоговая отчетность, традиционный план, международное налогообложение, природные ресурсы, налогообложение, водные ресурсы, земельные ресурсы, налог на недропользование, порядок взимания, недра, налоги на имущество.

KIRISH

O'zbekistonda so'nggi yillarda foydali qazilma konlarini sanoat usulida o'zlashtirish, geologiya-qidiruv ishlarini rag'batlantirish orqali yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda amalga oshirilgan konchilik sohasidagi qonunchilik normalarini yanada soddalashtirish, strategik turdagi foydali qazilmalardan tashqari barcha turdagi foydali qazilmalarni litsenziya o'rniga ruxsatnoma asosida qazib olish, ruxsat berish tartib-taomillarining ma'muriy reglamentini ixchamlashtirish, masofadan turib ruxsat olish tizimini joriy qilish tadbirlari bilan bir qatorda foydali qazilmalardan olingan mahsulotlar qiymatini aniqlash tartibini takomillashtirish, xarajatlar miqdorini soliq to'lovchilar va soliq organlari birgalikda aniqlash, noruda qurilish materiallari uchun belgilangan soliq stavkasini unifikatsiya qilish, qazib olingan metallarning haqiqatan realizatsiya qilingan hajmi qiymatini soliq bazasi sifatida belgilashga yo'naltirilgan tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish masalalarini takomillashtirish mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhini keltiramiz. Rossiyalik olima



M. Ilicheva tabiiy boyliklarni soliqqa tortish mexanizmlarini tadqiq etib, yirik soliq to'lovchilar tomonidan neft va gaz kompaniyalari to'laydigan foydali qazilmalarni qazib olish solig'i misolida bu boradagi muhim tadqiqot natijalarini asoslab beradi. Xususan, M. Ilicheva "neft va gaz kompaniyalari tomonidan to'lanadigan foydali qazilmalarni qazib olish solig'ini undirishni optimallashtirish va yanada malakali boshqarish davlat budjeti va umuman iqtisodiyot shakllanishi uchun juda muhimdir" [1]. A. Bloshenko texnogen kon tushunchasi va uning soliqqa tortish mexanizmiga baho berib, "texnogen kon – bu, foydali qazilmalarni qazib olishda yer qa'ridan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, mineral xomashyoni qazib olish va kompleks qayta ishlash jarayonida yo'qotishlar sifatida olinadigan, alohida litsenziyalanishi kerak bo'lgan ikkilamchi foydali qazilmalardir" [2]. I. Mustafa o'z ilmiy ishlarida "Rossiya konlarida joylashgan neft narxining o'zgaruvchanligi asosida soliq yukini prognozlash metodologiyasini ishlab chiqdi, neft narxining o'zgaruvchanligi sharoitida o'zlashtirish qiyin bo'lgan uglevodorod xomashyosini qazib olish sohasida soliqqa tortishning amaldagi tizimini isloh qilish zarurligini asoslab berdi va bu borada toifaviy apparatni kengaytirishni taklif qildi" [3]. Ye. Tumanova o'zining "Er qa'ridan foydalanishning huquqiy asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida tabiiy boyliklar atamasini ham geologik, ham huquqiy tushuncha sifatida izohlaydi. Olimaning fikricha, "tabiiy boyliklar nafaqat tarkibidagi foydali qazilmalar bo'lgan geometrik yer osti makonini, balki yer qa'ri boshqa barcha foydali xususiyatlarini, shu jumladan energiya resurslari, yer osti inshootlari, yer qa'ri obyektlarining sanitariya-rekreatsion ta'siri va yer qa'ri haqidagi geologik ma'lumotlarni ham anglatadi" [4].

A.Fedorov tadqiqotlari doirasida "ma'muriy yukni kamaytiradigan va yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faolligini rag'batlantiradigan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etgan, amaldagi soliq imtiyozlarini sezilarli darajada kengaytiradigan va to'ldiradigan hamda o'z investitsiya manbalarini ko'paytiradigan yirik soliq to'lovchilarning investitsiya faoliyatini soliq orqali rag'batlantirish usullari va uslublarini ishlab chiqqan, ularning samaradorligini baholagan" [5].

T.Kamalnev yirik soliq to'lovchilarning faoliyatini soliqqa tortish amaliyotini bevosita gaz tarmog'i korxonalari misolida tahlil qilgan bo'lib, yirik soliq to'lovchilarining soliq ma'muriyatchiligi natijalariga baho bergan, mintaqalararo soliq xizmati organlarining nazorat faoliyati ham miqdoriy, ham sifat ko'rsatkichlari asosida tahlil qilgan [6].


S.Brusnisin yirik soliq to'lovchilar faoliyatiga oid soliq ma'muriyatchiligida qo'shilgan qiymat solig'ining yukini boshqalarga o'tkazilishida soliq nazoratini o'rnatish muammolari bilan bog'liq ilmiy-amaliy tavsiyalar beradi. "Soliq nazoratining taklif etilayotgan bosqichlari, mavjudlaridan farqli o'laroq, QQSni hisoblash va to'lashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi, bu esa o'z navbatida nazorat ishlarining uslubiy asoslarini takomillashtirishga yordam beradi va natijada soliq ma'muriyatchiligining sifatini oshiradi, shuningdek, innovatsion soliq nazorati mexanizmlarini shakllantirishga yordam beradigan tubdan yangi amallardan foydalanishni ko'zda tutadi" [7].

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Soliq to'lovchilarni soliq to'lash maqomiga ko'ra, konsolidatsiyalashgan guruhga kiruvchi soliq to'lovchilar, kontragen guruhlar va yirik soliq to'lovchilar qatoriga kiritish mumkin. Bundan tashqari, donor soliq to'lovchilar guruhi va yirik soliq to'lovchilarni farqlash kerak bo'ladi. Donor soliq to'lovchilar o'z imkoniyatlariga ko'ra, ularga yuklatilgan soliq majburiyatlarini bajarish doirasida katta miqdordagi soliq to'lovlarini to'lash orqali tegishli budjetga soliq to'lovlari bo'yicha boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan keskin ajralib turishi orqali ular "donor" maqomini oladi. Bunday soliq to'lovchilar ko'pincha, yirik soliq to'lovchilar toifasiga ham kiradi. Masalan, bunday soliq to'lovchilar qatoriga "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ, "O'ztransgaz" AJ, "O'zbekneftgaz" AJ, "O'ZBAT" AJ QK, "Lukoil", "O'zavto Motors" AJ, "O'zbektelekom" AJ, "Hududgazta'minot" AJ kabilarni kiritish mumkin.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotida yirik soliq to'lovchi maqomiga ega bo'lgan korxonalar mavjud bo'lgan. Ammo, 2017-yilgacha bo'lgan soliq ma'muriyatchiligida ularni alohida maqom sifatida ajratgan holda ularga nisbatan mansub soliq ma'muriyatchiligi shakllantirilmagan. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalarni soliqqa tortish haqida gap ketganda ular bilan bog'liq soliq menejmenti va soliq ma'muriyatchiligini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Soliq menejmenti – soliq sohasidagi boshqaruv jarayonlarining zamonaviy shakli sifatida o'z obyekti, subyekti, bosqichlari va xususiyatlariga ega. Soliq menejmenti deganda davlatning soliq tizimiga kiruvchi elementlarning holati, harakati, ularning o'zaro aloqasi, shuningdek, soliqqa tortish maqsadida to'lovchilar faoliyatiga davlat tomonidan aralashuvi (tartiblash, rag'batlantirish, nazorat qilish)ga oid munosabatlarni umumiy maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarishga oid ilmiy asoslangan faoliyat va jarayon tushuniladi.



1-rasm. Yirik soliq to'lovchi korxonalarning iqtisodiy-ijtimoiy maqomi¹.

1-rasmda keltirilganidek, yirik soliq to'lovchi korxonalarning iqtisodiy-ijtimoiy maqomini belgilovchi bir qator elementlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Yirik soliq to'lovchilarga xos xususiyatlardan biri ularning aksariyati yirik va tabiiy monopol mavqega ega bo'lgan korxonalar hisoblanadi. Ularning yillik mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) hajmi boshqa soliq to'lovchilarga anchayin katta miqdorni tashkil qiladi. Bu kabi korxonalar milliy iqtisodiyotda yalpi mahsulotni yaratishda, turli darajadagi budjetlarning daromadlarini shakllanishida, aholini band qilishda katta ham iqtisodiy ham ijtimoiy maqomga egadir.

Soliq menejmenti, avvalo, soliq tizimiga kiruvchi elementlarning o'zini boshqarish hamda ushbu elementlar bilan bog'liq soliq to'lovchilar faoliyatini boshqarish makonlarini qamrab oladi. Shu jihatdan soliq menejmentining ikki tomonini ko'rish mumkin. Davlatning soliq menejmenti davlatning soliqlarni joriy etish va undirish bilan bog'liq o'zining bu boradagi faoliyatini (vakolatli organlar faoliyatini) boshqarish hamda davlatga soliq to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslarning soliq to'lash bilan bog'liq faoliyatini boshqarish (muvofiqlashtirish) soliq menejmentining qo'llanish chegarasini aniqlab beradi. Soliq menejmenti shu boisdan ham ko'lami jihatidan makro va mikro darajadagi soliq menejmentiga bo'linadi. Makrodarajagi soliq menejmenti davlatning vakolatli organlarining faoliyatining bir qismi hisoblanadi. Davlat o'zining markazlashtirilgan pul fondlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirar ekan, bu bilan bog'liq keng qamrovli faoliyatni tashkil etish, uni optimal boshqarish va muvofiqlashtirib turishi talab etiladi.

O'zining soliq siyosati orqali soliqlarni joriy etishi, ularning undirish mexanizmlari va ularni takomillash-tirish bilan bog'liq faoliyatini yo'lga qo'yishidan tashqari, soliqlar bilan bog'liq boshqa yana bir qator munosabatlar tizimi ham yuzaga chiqadiki, ularning yagona maqsad yo'lida boshqarish va muvofiqlashtirishni talab qiladi. Soliq menejmenti esa soliq siyosatidan ham kengroq tarzdagi munosabatlarni qamrab oladi. Davlat makroiqtisodiy soliq menejmenti doirasida bevosita soliq tizimining faoliyatini boshqarish bilan birgalikda soliq xizmati organlarining boshqa vakolatli organlar bilan soliq to'lovchilar va soliq obyektlarini ro'yxatga olish, soliq

1 Муаллиф томонидан тузилган.

tushumlarni hisobga olish, soliqlarning budjetga jamlanishi va soliqlarning budjetlar o'rtasida taqsimlanishi, soliqqa oid majburiyatlarning yuzaga kelishi, soliqqa oid qonunbuzilishlar bo'yicha javobgarlik choralarini belgilash va javobgarlikka tortish, soliq tizimi hamda soliq to'lovchilar faoliyatini tadqiq etish, soliq to'lovchilarning psixologik holati va soliq tizimiga oid mulohazalarini aniqlashga oid jarayonlar va ularni amalga oshiruvchi soliq xizmati organlaridan tashqari boshqa organlarning bu bilan bog'liq munosabatlarni tartiblaydi, boshqaradi va muvofiqlashtiradi.

Soliq ma'murchiligi jarayoni o'ziga xos tarkibga va tuzilishga ega bo'lib, u turli-tuman faoliyatlarni (huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy) qamrab oladi. Soliq tizimining qanchalik samarali ishlashi ko'pincha soliq ma'murchiligining samarali tashkil etilishi va amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi. Soliq menejmentining eng muhim elementini soliq ma'murchiligi tashkil etadi. Qayd etish joizki, soliq ma'murchiligi tushunchasi bu zamonaviy tushuncha sifatida soliq jarayonini tashkil etish va boshqarish munosabatlari tushunchasining sinonimi sifatida kirib keldi. O'zbekiston soliq tizimida soliq majburiyati yuklatilgan soliq to'lovchilarga yirik soliq to'lovchi sifatida alohida ajratilib, ularga o'ziga xos soliqqa tortish mexanizmi va soliq ma'murchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda ularning mahsulot sotishdan tushgan tushumning hajmi, aniq soliq to'lovchilar, milliy iqtisodiyot uchun muhim bo'lgan va rentabelli faoliyat bilan shug'ullanishi kabi mezonlar asosiy mezon sifatida belgilab olingan. Yirik soliq to'lovchilar toifasiga aniq soliq to'lovchilar – "Navoiy KMK" AJ, "Olmaliq KMK" AJlarning kiritilishi bu kabi soliq to'lovchilar milliy iqtisodiyotimizdagi transmilliy kompaniyalari qatoriga kiruvchi korxonalar sanaladi va davlat budjeti daromadlarining asosiy qismini shakllantiriladi.

Bugungi kunda Rossiya federatsiyasida yirik soliq to'lovchilarning asosiylaridan biri bu – "ROSNEFT" kompaniyasi hisoblanadi. Undan keyin "GAZPROM" va "LUKOIL" kompaniyalari o'rin olgan. Ushbu ro'yxatga neft sanoati bilan bir qatorda "Rossiya temir yo'llari" va "Rossiya Sberbanki" ham kiritilgan. Rossiyada yirik soliq to'lovchi maqomini olgan tashkilotlar faoliyat darajasi va miqyosiga qarab ro'yxatdan o'tishga majbur hisoblanadi. Soliq tuzilmalari, o'z navbatida, bevosita ishtirok etmagan holda soliq qonunchiligi normalarining bajarilishini nazorat qiladi. Ro'yxatga olish jarayonida tegishli davlat idoralari quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

- ro'yxatga olish sababining yangi kodini berish (birinchi 4 raqam soliq xizmatining kod belgisi, 5 va 6 belgilar maqomini belgilash mezon);
- yuridik shaxslarning yagona Davlat reestriga ma'lumotlarni kiritish;
- 9-shakl(YSTHO-yirik soliq to'lovchilarni hisobga olish)ga muvofiq xabarnoma berish (soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, sabab kodi).

Maqom tegishli inspeksiyada ro'yxatdan o'tgan paytdan boshlab beriladi. Bu tumanlararo va mintaqalararo bo'lishi mumkin. Yirik soliq to'lovchilarning o'zaro bog'liqlikni aniqlash jarayonida Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 105.1-moddasi normalari muhim rol o'ynaydi. Ushbu mezon soliq to'lovchining munosabatlari faoliyatning asosiy yo'nalishi shartlari yoki natijalariga ta'sir qiladigan vaziyatda qo'llanilishi mumkin. Bunday vaziyatda nafaqat soliq to'lovchining o'zi, balki u bilan o'zaro bog'liq bo'lgan tashkilot ham eng yirik deb tasniflanadi.

Rossiyada Federal darajaga tegishli kompaniyalarga quyidagilar kiritiladi:

- kredit tashkilotlari;
- professional darajada ishlaydigan qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari;
- pensiya sug'urtasi va ta'minot faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar;
- sug'urtalash, qayta sug'urtalash, vositachilik operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar.

Shuningdek, amaliyotda e'tiborga olish lozim bo'lgan quyidagi bir nechta maxsus vaziyatlar mavjud:

1. Notijorat tashkilotlarni, agar sotishdan olingan umumiy daromad va sotishdan tashqarida olingan tushumlar 20 mln. rublni tashkil etgan bo'lsa, notijorat tashkilotlarga kiritish mumkin.
2. Yirik soliq to'lovchini qayta tashkil etish chog'ida uning huquqiy vorisi ushbu maqomni uch yil davomida saqlab qolishi mumkin.
3. Agar bankrotlik boshlangan bo'lsa, maqomning amal qilinishi tugaydi.
4. Yirik soliq to'lovchilar sifatida Federal soliq xizmatiga o'tkazilgan banklar, litsenziya bekor qilingan taqdirda, sud qaroriga qadar maqomini saqlaydi.

Rossiya Moliya vazirligi Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 83-moddasiga muvofiq yirik soliq to'lovchilarni hisobga olishni o'ziga xos xususiyatlarini belgilash vakolatiga ekanligi belgilab qo'yilgan. Rossiyada keyingi yillarda tashkilotlarni, ularning umumiy ko'rsatkichlari 10 milliard rubldan kam bo'lishiga qaramay, yirik soliq to'lovchilar bo'yicha idoralararo inspeksiylariga o'tkazish tendensiyasi kuzatilmoqda. Eng yirik toifaga mansub bo'lgan soliq to'lovchilarning ma'muriyatchiligi maxsus sharoitlarda amalga oshiriladi, Federal soliq xizmati tomonidan ularning faoliyatini nazorat qilish boshqa kompaniyalar faoliyatiga qaraganda ko'proq e'tibor bilan amalga oshiriladi.



1-jadval. Yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi "donor soliq to'lovchi"larning yirik soliq to'lovchilar tizimidagi fiskal ahamiyati tahlili² (foizda).

№	Ko'rsatkichlar	Yillar			
		2019	2020	2021	2023
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha jami soliq tushumlari		100	100	100	100
10 ta yirik korxonalarning jami tushumdagi ulushi		61,5	73,6	68,7	62,8
Shu jumladan					
1	Navoiy KMK AJ	16,3	35,2	30,5	23,2
2	Olmalik KMK AJ	7,0	13,7	15,9	12,9
3	O'zbekneftgaz AJ	11,9	7,9	7,2	9,1
4	Lukoil MChJ QK	10,3	2,7	2,5	3,9
5	O'ztransgaz AJ	6,1	5,9	3,9	4,1
6	Hududgazta'minot AJ	-	1,5	2,6	3,0
7	Uzbat QK AJ	3,7	2,7	2,6	2,4
8	Uzavtomotors AJ	3,1	1,9	1,1	1,5
9	Sho'rtangazkimyo MChJ	1,4	0,9	1,2	1,4
10	Uzkorgazchemikal MChJ QK	1,8	1,0	1,1	1,3

Mazkur keltirilgan 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 10 ta yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi "donor soliq to'lovchi"larning yirik soliq to'lovchilar tizimidagi fiskal ahamiyati o'zgarib borgan. Xususan ularning yirik soliq to'lovchilarning jami tushumidagi ulushi 2019-yilda 61,5 foizni tashkil qilib, 2020-yilda keskin o'sib, 73,6 foizni tashkil qilganligining sababi Navoiy KMK AJ va Olmalik KMK AJlarning foyda solig'i 2019-yilda Moliya vazirligi g'azna hisob raqamiga to'langan bo'lib, ushbu soliq turi 2020-yildan soliq qo'mitasi g'azna hisob raqamlariga to'lanib kelinmoqda. 2021-yilda ushbu korxonalarning jami yirik soliq to'lovchilar soliq tushumlaridagi ulushi 68,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa 2022-yilda 62,8 foiz bo'lishi prognoz qilingan. Bu korxonalarning jami tushumdagi ulushi kamayishi tendensiyasi o'rganilganda, asosan Navoiy KMK AJ va Olmalik KMK AJlarning yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq va foyda solig'i stavkalarining kamayishi hisobiga yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, Navoiy KMK AJ soliq tushumlari 2020-yilda 35,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 30,5 foizni, 2022-yilda esa 23,2 foizni prognoz qilinganini ko'rishimiz mumkin. Xuddi shu holatni Olmalik KMK AJda ham kuzatish mumkin bo'lib, ushbu korxonaning soliq tushumlari jami tushumda 2021-yilda 15,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda esa 12,9 foizni prognoz qilinganini qayd etishimiz lozim.

Yirik soliq to'lovchilar soliq tushumi tahlili.

Joriy yilning iyul oyi uchun yirik soliq to'lovchilar bo'yicha budjetga belgilangan 9,6 trln so'm prognoz ko'rsatkichi 9,9 trln so'mga (103 %) ta'minlanib, o'tgan yilning mos davriga (7,1 trln so'm) nisbatan 1,4 baravar o'sish ta'minlandi.

Biroq Vazirlar Mahkamasi bayoni bilan joriy yilning avgust oyida tasdiqlangan 77 ta yirik korxonaga 9,0 trln so'mlik budjet prognozi ko'rsatkichlari 8,1 trln so'mga (89 %) ta'minlanib, 0,9 trln so'm tushmasdan qoldi.

Jumladan:

1. Neft-gaz, yoqilg'i sanoatida 1,4 trln so'm prognoz 650 mlrd so'mga ta'minlasdan qolgan bo'lsa, "O'zbekneftgaz" AJning joriy yilning yanvar-iyul oylaridagi budjetga to'lovlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 732 mlrd so'mga, "Uz-kor Gaz Kemikal" MChJda 407 mlrd so'mga va "Buxoro neftni qayta ishlash zavodi" MChJda 302 mlrd so'mga kamayib ketgan.

- "Buxoro neftni qayta ishlash zavodi" MChJ 2024 yil I yarim yilligidagi daromadi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16 foizga, soliq tushumlari 49 foizga kamaygan.

Ushbu soliq tushumlarning kamayib ketishiga asosiy sabab daval shartnomasi asosida qayta ishlash xizmati hajmining 2021 yilda jami tovar aylanmaning 39 foizidan joriy yilda 45-50 foizgacha oshishidir. Shu bilan birga daval bo'yicha belgilangan xizmat haqi xarajatlarni qoplamaydi va shuni hisobiga BNPZ soliq bazasi hamda soliq tushumlar keskin kamaygan.

2 Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ва Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.



Jumladan, zavodda benzin ishlab chiqarish hajmi 2024-yil I yarim yilligida 424,6 ming tonnani tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga (616,3 ming tonna) nisbatan 191,7 ming tonnaga (31 %) kamayib ketgan.

- "O'ztransgaz" AJ tomonidan 2024-yil I yarim yil yakuni bo'yicha olgan 3,5 trln so'm sof foydasini hisobotlarda ko'rsatmasdan 525 mlrd so'm foyda solig'i to'lanmasdan qolmoqda.

2. Elektr-energetika sanoati korxonalariga iyul oyi uchun belgilangan 374 mlrd so'm tushum rejasi 118 mlrd so'mga ta'minlanib, 308 mlrd so'mga bajarilmasdan qoldi.

Sohaning joriy yil 7 oylikdagi budjetga to'lovlari 1,2 trln so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga (1,7 trln so'm) nisbatan 520 mlrd so'mga kamaygan.

Jumladan, "Issiqlik elektr stansiyalari" (435 mlrd so'm), "Hududiy elektr tarmoqlari" (485 mlrd so'm) jamiyatlarining o'zida 920 mlrd so'mga kamaygan.

Bundan tashqari, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ tomonidan 2023-yilda hududlardagi elektr tarmoqlari korxonalarini o'zida birlashtirib, ushbu korxonalarni qo'shib olishda sun'iy ravishda 815 mlrd so'mlik gudvill yaratib, zarar bilan yakunlagan va shuni hisobiga budjetga 159 mlrd so'm foyda solig'i to'lanmasdan qolgan.

3. Bank va sug'urta sohasida tasdiqlangan 730 mlrd so'mlik soliq tushumlari 59 foizga bajarilib, 298 mlrd so'm budjetga to'lanmasdan qolmoqda.

Soha korxonalarining joriy yil I yarim yilligidagi daromadlari 65 trln so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga (52 trln so'm) nisbatan 25 foizga o'sgan bo'lsa, xarajatlari 44,5 trln so'mdan 59 trln so'mga yoki 32 foizga oshib ketgan.

Misol uchun, "Agrobank" ATB tomonidan I yarim yillik uchun taqdim etilgan hisobotda o'tgan yilning mos davriga nisbatan foizlar va ayrim xarajatlar 1,5 trln so'mga oshganligi natijasida 297 mlrd so'm foyda solig'i hisoblanmasdan qolgan.

"O'zmilliybank" AJ hamda "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan zaxira fondlarini oshirilganligi xisobiga 122 mlrd so'm foyda solig'i yo'qotilgan.

4. Avtomobil sanoatida 870 mlrd so'm prognoz ijrosi 764 mlrd so'mni tashkil etib, 88 foizga bajarildi.

"O'zavtosanoat" AJning 2023-yil sof foydasidan davlat ulushi bo'yicha dividendlar iyul oyida budjetga to'lanishi lozim bo'lgan 1 044 mlrd so'mdan 569 mlrd so'mi to'landi va qolgan 482 mlrd so'm budjetga to'lanmasdan qolgan.

5. Qurilish korxonalariga tasdiqlangan 97 mlrd so'mlik prognoz hisobidan atigi 4 mlrd so'm to'lov amalga oshirilib, 94 mlrd so'm budjetga tushmadi.

Jumladan, "Enter injiniring" korxonasi 53 mlrd so'm, "Eriel" 13 mlrd so'm, "Diskover invest" 25 mlrd so'm soliqlarni to'lab bermagan.

6. Aloqa sohasida belgilangan 275 mlrd so'm reja 203 mlrd so'm (74 foizga) yoki 72 mlrd so'm bajarilmasligi soha korxonalarining daromadlari (1,4 trln so'm) o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18 foizga oshganligi va xarajatlari esa (1,5 trln so'm) 22 foizga o'sganligi sabab bo'lgan.

Misol uchun, "Koskom" MChJ daromadlari 176 mlrd so'mga (13 foizga) oshgan bo'lsa, xarajatlari 376 mlrd so'mga (34 foizga) oshganligi natijasida soliq bazasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 200 mlrd so'mga kamaygan va shuni hisobiga 30 mlrd so'm foyda solig'i tushmasligiga sabab bo'lgan.

7. Kimyo sanoatida 2024-yil iyul oyida belgilangan prognoz Navoiyazotda 69 mlrd so'm o'rniga 44 mlrd so'm yoki 25 mlrd so'm ijro etilmasdan qolgan. Shuningdek, "Maksam Chirchiqda 23 mlrd so'm o'rniga 6 mlrd so'm yoki 17 mlrd so'm soliq to'lovlari kam amalga oshirilgan.

II. Vazirlar Mahkamasi Bayoni bilan yirik soliq to'lovchilarga joriy yilning avgust oyi uchun 8,6 trln so'm prognoz belgilangan bo'lib, 1,7 trln so'mga bajarilmaslik xavfi mavjud.

Shuning uchun, ushbu xavfni bartaraf etish maqsadida 2023-yil yakuni bo'yicha sof foydasidan davlat ulushi bo'yicha avgust oyida "O'zbekneftgaz" AJ – 568 mlrd so'm, "O'zavtosanoat" AJ - 860 mlrd so'm dividend to'lovlarini amalga oshirishi shart.

Shu bilan birga, joriy yilning 1-avgust holatiga yirik soliq to'lovchilarning 990 mlrd so'm soliq qarzi mavjud bo'lib, 508 mlrd so'mi (51 %) "Sanoat energetika guruhi" MChJ korxonalariga to'g'ri kelib, ushbu korxonalarning soliq qarzi yil boshiga (30 mlrd so'm) nisbatan 478 mlrd so'mga oshib ketgan.

Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi Sanoat energetika guruhining joriy yildi oshgan soliq qarzini avgust oyida 300 mlrd so'mini va sentyabr oyida 200 mlrd so'mni undirish choralarini ko'rish shart.

III. Umuman olganda, 2024-yil III choragi va yil yakuni bilan budjetga belgilangan prognoz ko'rsatkichlari ijrosini so'zsiz ta'minlash maqsadida quyidagi topshiriqlarni bajarishingiz shart.

1. "O'zbekneftgaz" AJ tomonidan 568 mlrd so'm hamda "O'zavtosanoat" AJ tomonidan 860 mlrd so'm dividend to'lovlarini avgust oyida budjetga to'liq to'lab bersin va natijasi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritin.

2. Bayon bilan yirik soliq to'lovchilarga joriy yilning avgust oyi uchun 8,6 trln so'm prognoz belgilangan bo'lib, tushumning asosiy qismi tog'-kon va metallurgiya sanoati 2,9 trln so'm (34%), neft-gaz, yoqilg'i sanoati



2,3 trln so'm (27 %), avtomobil sanoati 819 mlrd so'm (9,6 %) va moliyaviy xizmatlar 730 mlrd so'm (8,5 %) to'g'ri keladi.

Shundan kelib chiqib, avgust oyida NKMK 1,8 trln so'm, OKMK 767 mlrd so'm, "O'zbekneftgaz" AJ 518 mlrd so'm, "Lukoil" 462 mlrd so'm, "Uzgastreid" AJ 387 mlrd so'm, "Hududgazta'minot" AJ 267 mlrd so'm, "Uzavtomotors" AJ 398 mlrd so'mlik soliqlarni budjetga to'lanishini so'zsiz ta'minlasin.

3. Markaziy bank banklarning daromad xarajatlarini o'rganib chiqib, avgust oyi va yil yakuniga qadar soliq to'lovlari bo'yicha belgilangan prognoz ko'rsatkichlarini so'zsiz bajarilishini ta'minlab, Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritisin.

4. Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi bilan hamkorlikda:

- joriy yilning 1-yarmida o'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy gaz ishlab chiqarish hajmi 1,4 mlrd kub metr, gaz kondensati ishlab chiqarish hajmi 8,4 ming tonna hamda neft mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5,2 ming tonnaga kamayganligidan kelib chiqib, ushbu soha korxonalarida ishlab chiqarish hajmini avgust-dekabr oylarida joyiga qo'yib bersin.

- "Buxoro neftni qayta ishlash zavodi" MChJ daromadlari 2024 yil I yarim yilligida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16 foizga, budjetga to'lovlari 49 foizga, shuningdek benzin ishlab chiqarish hajmi 191,7 tonnaga (31,1 foiz) kamayganligidan kelib chiqib, jamiyatning daval shartnomasida mahsulot ishlab chiqarish faoliyati qonuniyligi va samaradorligini o'rganib chiqib Vazirlar Mahkamasiga aniq taklif kiritisin.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Mustafaev) Soliq qo'mitasi (Mirzaev) bilan hamkorlikda:

- yoqilg'i-energetika va elektr-energetika sohalarida debitor qarzdorliklarini yil yakuni bo'yicha to'liq undirib soliq qarzdorlikka yo'naltirilsin va yil yakuni bilan bir so'm ham soliq qarzdorlikka yo'l qo'ygan rahbarlarga nisbatan javobgarlik choralari ko'riilsin;

- "Sanoat energetika guruhi" MChJ XK tizimidagi korxonalarning 508 mlrd so'mlik soliq qarzini avgust-sentyabr oylarida to'liq to'lab berilishini tashkil qilsin va yil yakuni bilan soliq qarzi hosil bo'lmaslik choralari ko'rsin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-sentyabrdagi 720-son qaroriga asosan Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan haqiqiy ravishda qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmining marksheyderlik xulosasiga muvofiqligi yuzasidan monitoring o'tkazish huquqi berilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qaroriga asosan soliq organlari tomonidan yer qa'ridan foydalanuvchilar haqiqiy qazib olgan (ajratib olgan) foydali qazilmalar hajmini tekshirish uchun Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish hududiy inspeksiyalarining mutaxassislari jalb qilish yiliga ikki martadan ko'p bo'lmagan holda amalga oshirilishi mumkin. "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning 71-moddasiga asosan, faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridi amalga oshirilishi mumkin. 2023-yilda 836 ta holatda 6 mln metr kub noqonuniy qazilma hajmi aniqlanib, 17,3 mlrd so'm miqdorida qo'shimcha soliq hisoblangan. 2024-yilning 1-yarim yilligida 123 ta holatda 848,7 ming metr kub noqonuniy qazilma hajmi aniqlanib, 2,8 mlrd so'm miqdorida qo'shimcha soliq hisoblangan.

Bugungi kunda jami 743 nafar marksheyderlar mavjud bo'lib, shundan 47 nafari (6 foiz) davlat idoralarida, 696 nafari (94 foiz) xususiy tashkilotlarda (ularning o'rtacha marksheyderlik xizmat haqi 8 mln so'm) faoliyat yuritadi. Davlat idoralaridagi marksheyderlarning soni cheklanganligi hamda yer qa'ridan foydalanuvchilar haqiqiy qazib olgan (ajratib olgan) foydali qazilmalar hajmini tekshirish uchun Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyalarining mutaxassislari yiliga ikki martadan ko'p bo'lmagan holda jalb qilish belgilanganligi sababli yer qa'ridan noqonuniy foydalanish holatlarida soliq nazorati tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish imkoniyati mavjud emas. Soliq organlariga marksheyderlik xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzgan holda mutaxassislarni jalb qilish huquqi berish lozim. Bunda marksheyderlik xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotlarga o'lchov ishlari yakunlari bo'yicha qo'shimcha undirilgan yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasining 10 foizi, biroq mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining o'n baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda haq to'lash lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Иlicheva Мария Александровна. Правовое регулирование налоговых отношений с участием крупнейших налогоплательщиков (на примере предприятий нефтегазовой отрасли). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва – 2017.
2. Блошенко Татьяна Алексеевна. Методология налогообложения организаций при добыче и комплексной переработке минерального сырья. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Москва – 2019.



3. Ибрахим Мустафа Али Ибрахим. Развитие налогообложения добычи углеводородного сырья в труднодоступных российских месторождениях в условиях волатильности цен на нефть. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва – 2020.
4. Туманова Е.Ю. Правовые основы недропользования. Учебное пособие. Ставрополь – 2017. 6 стр.
5. Федоров Андрей Николаевич. Налоговое администрирование и стимулирование инвестиционной активности крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Нижний Новгород – 2010.
6. Камалнев Тимур Шамилович. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва – 2009.
7. Худойкулов. Directions for improving the process of forecasting the property tax of individuals. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 6, June, 2022.
8. Худойкулов. Ўзбекистоннинг янги тараққиёт стратегияси шароитида солиқ сиёсати ва унинг асосий йўналишлари. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) илмий электрон журналы. 4/2022, июль-август (№ 00060).
9. Худойкулов. Does information and communication technology impede environmental degradation? Fresh insights from non-parametric approaches. Heliyon Volume 8, Issue 3, March 2022, e09108, <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2022.e09108>.
10. Худойкулов. State entrepreneurship and its integral connection with the financing of activities. World Bulletin of Management and Law (WBML). Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Volume-10 May-2022 ISSN: 2749-3601.
11. С. Худойкулов. Худудларнинг молиявий салоҳиятига таъсир этувчи омилларнинг таснифи ва аҳамиятлилиги. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" илмий электрон журналы. № 5, сентябрь-октябрь, 2021-йил.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

